

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском	562
языках и особенности их употребления	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalozizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalozizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shliqni to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



UO'K: 81'1:81'373

LINGVISTIK BO'SHLIQNI TO'LDIRISHNING 6 XIL YO'LI

6 РАЗНЫХ СПОСОБОВ ПРЕКРАТИТЬ ЯЗЫКОВЫЙ РАЗРЫВ

6 DIFFERENT WAYS TO BRIDGE THE LANGUAGE GAP

Latipov Sherzod Foziljon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishning 6 xil usuli o'rganilgan. Germenevtik tafakkur asosida tilning ichki va tashqi xususiyatlari tahlil qilinib, bo'shliqlarni to'ldirishning amaliy yondashuvlari ko'rsatilgan. Tilda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar, metaforik qayta nomlash, kodlash, so'z-ijod, qayta tiklanish va ko'p ma'nolilik singari usullar yordamida mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishda tilshunoslikning ahamiyatini ko'rsatib, o'zbek tilining rivojlanishiga hissa qo'shuvchi omillarni ochib beradi.

Аннотация

В статье рассматриваются шесть способов устранения лингвистических пробелов. На основе герменевтического мышления анализируются внутренние и внешние характеристики языка, предлагаются практические подходы к их восполнению. Исследуются использование заимствованных слов, метафорическое переименование, кодирование, словообразование, обратное словообразование и многозначность как методы устранения существующих пробелов. Результаты исследования подчеркивают значимость лингвистики в устранении языковых пробелов и факторы, способствующие развитию узбекского языка.

Abstract

This article examines six methods of bridging linguistic gaps. Based on hermeneutic thinking, the internal and external characteristics of language are analyzed, and practical approaches to addressing gaps are presented. The study explores the use of borrowed words, metaphorical renaming, coding, word creation, back-formation, and polysemy as ways to fill existing gaps. The findings highlight the importance of linguistics in addressing linguistic gaps and emphasize factors contributing to the development of the Uzbek language.

Kalit so'zlar: lingvistik bo'shliq, germenevtik tafakkur, metaforik qayta nomlash, kodlash, so'z-ijod, qayta tiklanish, ko'p ma'nolilik, o'zlashtirilgan so'zlar, til rivoji, terminologiya.

Ключевые слова: лингвистический пробел, герменевтическое мышление, метафорическое переименование, кодирование, словообразование, обратное словообразование, многозначность, заимствованные слова, развитие языка, терминология.

Key words: linguistic gap, hermeneutic thinking, metaphorical renaming, coding, word creation, back-formation, polysemy, borrowed words, language development, terminology.

KIRISH

Ma'lumki, tabiat va jamiyatda bo'shliq bo'lmaganiday, tilda ham bo'shliqlarni to'ldiruvchi vositalar paydo bo'ladi, bu germenevtik yondashuv asosida amalga oshadi. Germenevtik tafakkur bu – dialektik tafakkurdagi to'g'ri chiziqli yoki sinergetik tafakkurdagi nochiziqli xotik tizim emas, balki tashqi (ya'ni, belgi, kod kabi) ifodalar bilan birga, ichki mazmunni aniqlashga yo'naltirilgan egiluvchan va ko'pqirrali tafakkur tarzidir. Egiluvchan deyilishiga sabab, germenevtik tafakkur obyektning xususiyatiga ko'ra, yondashuv va metodlarini oson o'zgartiradi. Uning ko'p qirraliligi esa, bir hodisaning bir necha aspektda tahlil qilish imkonini beradi. H.-G. Gadamer takidlaydiki [1;117-125], germenevtik tafakkur tarzida obrazlarning ahamiyati ham katta bo'ladi. Bu insonning tasavvur quvvati bilan bog'liq. Tilda aniqlangan bo'shliqlar ba'zan vaqtinchalik bo'shliqlar bo'lish ehtimoli ham yo'q emas va til o'z tizimi ichida bu bo'shliqlarni to'ldirishga imkon beradi.

Tadqiqotchi Fischer "lug'aviy bo'shliq"ni faqatgina ko'rinishga bog'liqligini aytadi[5;45-58]. Funktsional jihat muammo emas, chunki qanday bo'lmasin, birorta tushunchaga nisbatan qaysi tilda bo'lmasin, aynan lug'aviy tengligi topilmasa ham, ifoda etilish yo'li topiladi.

METODOLOGIYA

Maqolada lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil quyidagi metodologik usullar asosida amalga oshirilgan:

Nazariy tahlil: Lingvistik bo'shliqlarni to'ldirish jarayonlari germevntik tafakkur va tilshunoslik nazariyalari asosida o'rganildi. Adabiyotlarda mavjud bo'lgan tadqiqotlar ayrim tilshunos olimlarning ishlari tahlil qilindi.

Tasniflash: Bo'shliqlarni to'ldirish usullari oltita asosiy kategoriya (so'z o'zlashtirish, metaforik qayta nomlash, kodlash, so'z-ijod, qayta tiklanish va ko'p ma'nolilik) bo'yicha tasniflangan va ularning har birining xususiyatlari aniqlangan.

Qiyosiy tahlil: Lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishning turli usullari bir-biri bilan taqqoslangan, shuningdek, turli tillar, jumladan o'zbek, ingliz va turk tillarida qo'llanilgan yondashuvlar o'rganilgan.

Misollar asosida yondashuv: Maqolada o'zbek va boshqa tillardan real hayotiy va nazariy misollar keltirilib, metodlarning amaliy tatbiqlari ko'rsatib berilgan. Masalan, metaforik qayta nomlash tibbiyotdagi terminlarda yoki so'z-ijod bolalar nutqida qo'llanilishi bilan izohlangan.

Ushbu metodologiya orqali lingvistik bo'shliqlarni to'ldirish masalasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, til rivojlanishiga hissa qo'shuvchi omillar aniqlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Lingvistik bo'shliqlarning turiga qarab, ularni to'ldirish usullari ham turlichadir.

1. Bo'shliqni boshqa tillardan olingan so'zlar bilan to'ldirish.

Tillar integratsiyasi jarayonida sayyor so'zlarning bo'lishi, so'z o'zlashtirilishi tabiiy hol sanaladi. Bu jarayon tilimiz tarixida ham mavjud. Masalan, tilshunoslar turkiy qatlam so'zlari asosan bir bo'g'inli bo'lishini ta'kidlaydilar[2]. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da berilgan 1544 ta bir bo'g'inli so'zlarning 855 tasi esa turkiy, qolgan 345 tasi arabcha, 340 tasi farscha ekanligi aniqlangan[3;10]. Demak, har davrda ham lingvistik bo'shliqni to'ldirish uchun o'zlashtirilayotgan so'zlar umumiste'moldagi so'zga aylanishda til qoidalariga bo'ysunadi.

Madaniyatlarning bir-biriga ta'sir qilishi kabi tillarning ham o'zaro ta'siri natijasida muayyan madaniyatga kirib kelgan yangi bir qarash o'zi bilan birga o'zlashma so'zlarni ham olib kiradi. E.Begmatov tasniflagan o'zlashma qatlam quyidagicha: fors-tojikcha, arabcha, ruscha internatsional leksik qatlamlarga ajratilgan[2]. Hozirgi kunga kelib, o'zlashma qatlam xususida bir qator tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, T.Rahmonov, Sh.Usmonova, U.Qoziyev, M.Komilova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida leksik bo'shliq, ya'ni leksik lakunalarni to'ldirishda semantik muvofiqlikka tayanilishi aytiladi.

Shunday yangicha tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarning topilib, lug'atga qo'shilishi ancha vaqt oladigan jarayondir. Yoki avval tilda ishlatilgan biror-bir so'z ishlatilmay qo'yilishi ham mumkin. Shunday vaziyatlar tufayli yuzaga keladigan bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish uchun boshqa tillardagi so'zlarni ishlatish yuz beradi. Bu usulda bo'shliqlarni to'ldirish ham tillar o'rtasidagi bo'shliqlarni, ham til ichi bo'shliqlarni to'ldirishda ilk murojaat qilinadigan usullardandir. O'zbek tiliga allaqachon arabcha va forschadan juda ko'p so'zlarning olinganligi va boshqa yevropa tillaridan, ayniqsa, ingliz tilidan yangicha so'z, birliklarning kirib kelayotganligi bunga yaqqol misoldir. Ammo bu tillardan o'zlashtirilgan so'zlarning barchasini bo'shliq to'ldiruvchi xususiyati bor deyish mumkin emas, chunki tilimizga kirgan va kirayotgan bu so'zlarning o'zbekcha muqobili ham mavjud. Biz so'z yuritayotgan bo'shliqlar esa tilda endi paydo bo'lgan bo'shliqlarni to'ldiradigan o'zlashgan so'zlardir. Misol tariqasida ingliz tilida mavjud bo'lmagan "yogurt" tushunchasini o'zi bilan lug'aviy birligini ham olinganligini, yoki o'zbek tiliga "kartoshka" tushunchasining o'zi bilan birga so'zining ham olib kirilganligini ko'rsatish mumkin.

Bir tilda biror so'zning ishlatilmay qo'yilganligi sababli yuzaga kelgan bo'shliqlarning o'rnini o'zlashma so'zlar bilan to'ldirish ko'p uchramasa ham, bu vaziyatga misollar topiladi. Masalan, o'rindiq o'rniga stul, sarimsoq o'rniga chesnok.

2. Metaforik qayta nomlash.

Mazkur usulda lingvistik boshliqlarni to'ldirish, asosan terminologiyada amalga oshiriladi. F.I.Adulxairovaning "O'zbek tilida atamalarning metaforik manzarasi" nomli dissertatsiyasida tibbiyotdagi *quyon chaynash*, *ko'z olmasi*, *chechak*, *fil oyoq*, *legionerlar kasalligi*, *masxaraboz niqobi simptomi*, *tojsimon virus* kabi kasallik nomlari tibbiyotda metofofizatsiya jarayonining to'xtovsiz davom etayotganidan dalolat beradi. Metaforik qayta nomlash voqelikni yorqin

ifodalovchi tenglik bilan bo'shliqni to'ldirish sanaladi. Turk tilida "Açıklayıcı karşılık" sifatida bergan bo'lib, ingliz tilida ham "explanatory equivalent" bir lisoniy birlikning boshqa tilga tarjima qilinayotganda aynan to'g'ri keladigan ifoda topilmasa, boshqa o'xshash ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanishga aytiladi. Bunday o'rinbosar tenglik yoki boshqacha qilib aytganimizda, ifodalovchi tenglik aynan bir madaniyatga xos bir tushunchaning boshqa tilda tengligi topilmagan holatlarda keng ishlatilsa ham, madaniy birliklardan boshqa tushunchalarni ifodalashda ham ishlatiladi.

3. Kodlash orqali bo'shliqni to'ldirish.

Hosil bo'lgan lug'aviy bo'shliqlar o'rnini to'ldirishning boshqa bir yo'li "kodlash"dir. Bu usuldan foydalanishga bir nechta sabablar ko'rsatadi. Avvalambor, birorta tildagi lug'atga doir bo'shliqlarni aniqlash uchun qaysi sohalar ustida ish olib borilishini aniqlab olish kerak. Agar biror-bir tur ichidagi narsalar o'rtasida farq juda ham ko'p bo'lsa, kundalik va ish hayotimizda ishlatish uchun qulay bo'lishini o'ylagan holatda tur ichidagi ko'p farqli narsalarning har birini alohida so'z bilan nomlash no'tog'ri bo'lib, o'miga shunchaki kodlash juda to'g'ri qaror bo'ladi. Masalan, birorta rangning juda ham ko'p to'nlari mavjud bo'lib, ularning har birini "och", "to'q" yoki boshqa yana bir ikkita bog'liq so'zlardan foydalangan holatda o'rta chiqadigan bo'shliqlarning barchasini bartaraf qilish iloji bo'lmaydi. Ayniqsa, rang bilan bog'liq sohalarida ranglarning har bir to'nini bir-biridan ajratish kerak va bu ish kodlash orqali amalga oshiriladi.

4. So'z-ijod, nutqiy okkazionalik.

Bo'shliqlarni to'ldirishning shaxsiy-individual usuli sifatida mavjud bo'lgan nutqiy innovatsiya, kreotema (M.Qurbonova), individual neologizm, okkazionalizm (N.Mahmudov), so'z ijod (N.Sayidrahimova) deb nomlangan usullar mohiyatan bir xil, ya'ni voqelikni yorqin, o'ziga xos tarzda baholash, bolalarda esa lug'at boyligi rivojlanayotganda, so'zlarni qiyoslash vaqtda paydo bo'ladigan, tilning grammatik strukturasini o'zlashtirishdagi dastlabki bosqich sifatida talqin etiladi. Bolalardagi "xamxam-ovqat", "ichim-sharbat", "do-uyqu", "qo'qqi-qo'rqinchli", "achchiq-achqimtir birorta yegulik", "salomot- samolyot" kabi so'zlarni bolalardagi so'z-ijodga misol qilib olish mumkin. Turk bolalarida: "üşüngeç", "üşütük" - sovuqotgan odamlar uchun; "balongaz" - bolalarning ko'pikli shishalardan puflab sharchalar chiqaradigan o'yini; "Göndermez" - klavyaturadagi "enter" tugmasi; "Tuşkolik" - ko'p telefon ishlatadigan, asosan ko'p sms yozadigan odam.

Bolalar tarafidan bunday so'z qo'llash usulining sababi ba'zi bir tushunchalarning nomlari ularning ongida mavjud emasligi yoki bo'lsa ham cheklangan ma'noda boshqa o'rinlarda ishlatilib, kutilgan ma'noda ishlatilishini bilmasliklaridir. Quyidagi she'riy misralarda esa *biomaydon* atamasi, umumiste'moldagi yaqini, maslakdoshi o'rnida okkazional qo'llanilishni hosil qilgan.

Kimgadir yuraging talpinar, chopar,

Ko'rishmoq istaysan bo'lsa imkoni.

So'zidan yuraging halovat topar –

Demak, yaqin ekan BIOMAYDONI. (Siddiq Mo'min)

Ta'kidlash zarurki, o'ziga xos individual tarzda lisoniy bo'shliqni to'ldirishning mazkur usuli yangi, hali noma'lum bo'lgan narsalarni yoki holatlarni nomlash uchun so'zlovchining referentga xos ifodalash uslubini ko'rsatish holatining kontekstga bog'liq lahzali hosilalaridir. Bunday hosil bo'lgan ifodalarning vazifalarini esa tushunchalarni nomlashda ishlatiladigan so'zlarning sonini tejash, lug'aviy bo'shliqning o'rnini to'ldirish va uslubiy ta'sir natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

5. Qayta tiklanish bilan bo'shliqni to'ldirish.

Bu uslubning asl ingliz tilidagi nomlanishi "back-formation" bo'lib, ilk bor 1889 yilda James Murray tomonidan qo'llangan [4;19-21]. Ba'zan "back-derivation" deb ham nomlanadi; bu ikki nomlanishni o'zbek tiliga "qayta tiklanish" yoki "orqaga qaytish" deb tarjima qilsa bo'ladi. Qayta tiklanish olimlar tomonidan turlicha ta'riflangandir. Masalan, Trask (2015:30) uni "bir so'zdagi qo'shimchani olib tashlash orqali yangi so'z yasashga qayta tiklanishdir" deb ta'riflab, misol tariqasida *peddle*, *edit*, *sculpt*, *burgle* va *letch* so'zlarini keltirib o'tadi. Aytilishicha, bu so'zlar asli *pedlar*, *editor*, *sculptor*, *burglar* va *lecher* so'zlaridagi -er qo'shimchasini olib tashlash orqali yuzaga kelgandir. Bu holatga yana misol uchun *babysit* (*babysitter*dan), *televise* (*television*dan) so'zlarini ham ko'rsatish mumkin. Shu o'rinda bu so'zlarni garchi ko'rinishlari o'xshasa ham, *reader*, *driver* kabi so'zlardek emasligiga ta'kidlash o'rinli bo'ladi. *Reader* so'zi *read* so'ziga -er qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgandir, ammo *babysitter* so'zi bunday emas. Ingliz tilida *babysit* degan so'z

TILSHUNOSLIK

bo'lmagan aslida va mavjud bo'shliqni to'ldirish uchun *-er* qo'shimchasini olib tashlab *babysit* (bola qaramoq) so'zini yasashgan.

6. Ko'p ma'nolilik bilan bo'shliqni to'ldirish.

Aksariyat so'zlarning birdan ortiq ma'nolari bo'lib, ular turli xil tushunchalarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Lingvistik bo'shliqning paydo bo'lishiga sabab biror-bir tushunchaning lug'atda bo'lmashidir. Bu bir so'zning bir necha ma'noga ega bo'lishi va har xil tushunchalarni ifodalashiga ko'ra lingvistik bo'shliqning shu usul bilan to'ldirilganligini ko'rsatadi. Turk va o'zbek tillarida ko'p ma'nolilik bilan qarindosh nomlaridagi bo'shliqlarning to'ldirilishi ko'p uchraydi. Turk tilidagi "yeğen" o'zbek tilidagi "jiyan" so'zi amma, xola, tog'a va amakilarning bolalari uchun ishlatilishi bunga misol bo'la oladi.

XULOSA

Ushbu maqolada lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishning oltita asosiy usuli tahlil qilingan. Germenevtik tafakkur yondashuvi asosida tilning ichki va tashqi xususiyatlari o'rganilib, tilda mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishning samarali usullari ko'rsatilgan. Bo'shliqlarni to'ldirish uchun boshqa tillardan so'zlar o'zlashtirish, metaforik qayta nomlash, kodlash, so'z-ijod, qayta tiklanish va ko'p ma'nolilik kabi usullar qo'llanilishi mumkinligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari lingvistik bo'shliqlarni to'ldirishda tilshunoslikning ahamiyatini namoyon etib, o'zbek tilining boyishida ushbu jarayonlarning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Til rivojlanishining ushbu jarayonlari o'zlashtirilgan so'zlarning qabul qilinishi, yangi tushunchalar uchun mos nomlar yaratish va tilda mavjud bo'shliqlarni qoplash orqali amalga oshadi. Mazkur yondashuvlar nafaqat tilshunoslik nazariyasida, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gadamer, H.-G. (2004). *Truth and Method*. Bloomsbury Academic, pp. 117-125.
2. <https://azon.uz/content/views/bolosogun>
3. Ф.Шодиев. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол.фанл.номз....дисс.автореф. – Тошкент, 2008 – Б.10.
4. Murray, J. A. H. (1889). *A New English Dictionary on Historical Principles* (Vol. 1). Oxford University Press, Preface, pp. xix-xxi.
5. Fischer, R. (1999). *Lexical Gaps and Their Implications in Linguistic Theory*. Linguistic Press, pp. 45-58.